

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

6-2024

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

**B.Sh.Shermuhammadov, D.R.Murodova**

Bo'lajak o'qituvchilarda "Taqidiy tafakkur" tushunchasining metodologik asoslari  
va o'ziga xos xususiyatlari..... 8

**T.A.Egamberdiyeva, J.A.Qurbanov**

Bo'lajak pedagoglarda intellektual madaniyatni rivojlantirishning integrativ ta'lif texnologiyalari... 12

**S.Mannapov**

Uzluksiz ma'naviy tarbiya tizimida musiqiy meros omili va imkoniyatlari..... 17

**A.Abdullayev, J.X Abdullayev**

Kichik mакtab yoshidagilarni o'sishi va rivojlanishiga ta'sir etuvchi ayrim omillar ..... 21

**J.G'.Obidov**

Texnika oliv o'quv yurtlarida o'quv materiallarini imitatsion-variativlik asosida o'qitishni  
takomillashtirishning pedagogik-psixologik imkoniyatlari ..... 25

**A.T.Xasanov**

Harbiy ta'lif bo'yicha bo'lg'usi mutaxassislarni kasbiy-amaliy jismoniy tayyorlashning  
dolzarb masalalari..... 31

**X.X.Abdurahmov**

Iqtidorli o'quvchi yoshlarni yengil atletika turlariga saralash texnologiyasi ..... 37

**R.M.Ubaydullayev**

Bo'lajak o'qituvchilarda sog'lom turmush tarzi madaniyatini rivojlantirish tuzilmasi  
va komponentlari..... 42

**A.N.Qosimov**

O'quvchilarda sport vositasida milliy identiklikni shakllantirish samaradorligi..... 49

**D.R.Murodova, H.M.Ashurova**

Bo'lajak musiqa o'qituvchilarida interfaol metodlarni rivojlantirish..... 55

**A.I.Tuychiyev**

Jismoniy mashqlar bilan o'quvchilarni mustaqil shug'ullanish malakalarini shakllantirish..... 61

**S.T.Xakimov**

Chidamlilik jismoniy sifatlarini rivojlantirishda maxsus aerobik mashqlar qo'llash samaradorligi.... 65

**O.M.Karimov**

Bo'lajak pedagoglarning g'oyaviy-mafkuraviy kompetentligini rivojlantirish metodlari .. 69

**D.M.Redjabova**

O'zbekistonda boshqaruv kadrlarini tayyorlashda xotin-qizlarning faoliyatiga  
yangicha yondashuvlar ..... 72

**B.X.Baydjanov**

Talabalarda informatsion-analitik kompetentlikni rivojlantirish – zararli axborotlar tahdididan  
himoyalanish omili sifatida ..... 76

**Ш.В.Джалалов**

Влияние дифференцированного подхода на формирование здорового образа  
жизни у школьников ..... 81

**M.A.Xonbabayeva**

Logopedik ritmika fani asosida bo'lajak logopedning kasbiy kompetentligini rivojlantirishning  
pedagogik imkoniyatlari..... 85

**Ш.В.Джалалов**

Физическая подготовленность 11-12 летних девочек общеобразовательных школ  
Ферганской области ..... 91

**A.B.Mirzayev**

Chet tilni zamonaviy o'qitish tizimida sun'iy intellektdan foydalanish imkoniyatlari..... 95

**G.K.Yakubova**

O'quvchi-yoshlar qomatining konstitutsion tiplari va ularni antropometrik bahollash usullari..... 99

**O.Q.Xasanova**

Bo'lajak nemis tili o'qituvchilarining xatolarni bartaraf etish kompetensiyasini  
takomillashtirish modeli ..... 104



УО'К: 528.942.004.85

## BO'LAJAK NEMIS TILI O'QITUVCHILARINING XATOLARNI BARTARAF ETISH KOMPETENSIYASINI TAKOMILLASHTIRISH MODELI

### A MODEL FOR IMPROVING THE ERROR-CORRECTING COMPETENCE OF FUTURE GERMAN LANGUAGE TEACHERS

#### МОДЕЛЬ УЛУЧШЕНИЯ КОМПЕТЕНТНОСТИ ПО ИСПРАВЛЕНИЮ ОШИБОК У БУДУЩИХ ПРЕПОДАВАТЕЛЕЙ НЕМЕЦКОГО ЯЗЫКА

**Xasanova Ozodaxon Qurvonali qizi**

Farg'ona davlat universiteti, nemis va fransuz tillari kafedrasi mudiri, Pedagogika fanlari  
bo'yicha falsafa doktori, (PhD)

#### *Annotatsiya*

*Maqolada bo'lajak nemis tili o'qituvchilarida o'quvchilarining xatolarni bartaraf etish kompetensiyasini takomillashtirish modeli haqida fikr yuritilgan. Talabalarda xatolarni samarali to'g'rinish hamda ularni til o'rganuvchining individual xususiyatlarni inobatga oлган holda bartaraf etish, to'g'rinish jarayoni til o'rganuvchilarning demotivatsiyasiga sabab bo'lmasligi uchun amalga oshiriladigan ishlar borasida ko'nikmasini rivojlantirish asosida samaradorlikka erishish yo'llari tahlil qilingan.*

#### *Аннотация*

*В статье рассматривается модель совершенствования корректирующей компетентности учащихся у будущих учителей немецкого языка. Эффективная коррекция ошибок учащихся и их устранение с учетом индивидуальных особенностей изучающего язык, для достижения эффективности на основе развития навыков в выполняемой работе, чтобы процесс исправления не вызывал демотивации изучающих язык проанализировано.*

#### *Abstract*

*The article discusses the model for improving students' error-correcting competence in future German language teachers. Effective correction of students' mistakes and their elimination, taking into account the individual characteristics of the language learner, to achieve efficiency based on the development of skills in the work to be done so that the correction process does not cause demotivation of language learners are analyzed.*

**Kalit so'zlar:** nemis tili, xato, tahlil, o'qituvchi, to'g'rinish, til o'rganuvchi, model, kompetensiya.

**Ключевые слова:** немецкий язык, ошибка, анализ, учитель, коррекция, изучающий язык, модель, компетентность.

**Key words:** German language, error, analysis, teacher, correction, language learner, model, competence.

#### KIRISH

Bugungi kunda chet tillarni o'rganish borasida olib borilayotgan tadqiqotlarda o'qituvchilarning roliga katta ahamiyat berila boshlandi. O'qituvchi faoliyati o'rganish jarayonining ajralmas qismi hisoblanishi hammamizga ma'lum. Bundan tashqari o'rganishga undaydigan o'quv muhitini yaratishga ham alohida e'tibor qaratilmoqda [1]. Chet tili darslarida og'zaki xatolar ko'p uchraydi va shu o'rinda bunday xatolar odatda o'qituvchi tomonidan og'zaki to'g'rilanadi.

Xatolar ko'p hollarda o'qituvchi tomonidan to'g'rilanadi. Bunday to'g'rishlar nafaqat ma'no, mazmun, balki shakl bilan ham bog'liq bo'ladi. O'qituvchining xatolarni og'zaki to'g'rinishga qanday munosabatda bo'llishi til o'rganuvchilarning til o'rganish jarayonidagi suhbatlari qanday kechishiga katta ta'sir o'tkazadi.

#### ASOSIY QISM

Ma'lumki, har qanday pedagogik texnologiyani ta'lif berish jarayoniga joriy etish uchun birinchi navbatda shu pedagogik texnologiyaning ilmiy hamda amaliy mexanizmini ishlab chiqish kerak bo'ladi. Bu tushunchaga dunyoning ko'plab olimlari tomonidan ta'rif berilgan bo'lib, ular o'z navbatida bir-biridan farqlanib turadi. Bu esa pedagogik texnologiya tushunchasining ko'p qirrali ekanligini, unga nafaqat pedagogik, balki psixologik, didaktik, ijtimoiy hamda boshqa bir qator nuqtai nazarlardan ham yondashish maqsadga muvofiq ekanligini ko'rsatadi. Taniqli o'zbek tadqiqotchisi,

## PEDAGOGIKA

J.Yuldashevning fikriga ko'ra, "Pedagogik texnologiya – bu o'z oldiga ta'lim shakllarini optimallashtirish vazifasini qo'yuvchi, butun o'qitish va bilimlarni o'zlashtirish jarayonini texnik resurslar va odamlarning o'zaro munosabatlarini hisobga olgan holda yaratish, qo'llash va aniqlashning tizimli metodidir. Pedagogik texnologiya – ma'lumotlarni o'zlashtirish uchun qulay shakl va usulda uzatish va o'zlashtirish jarayonidan iborat"[9].

Tadqiqotda taklif etilayotgan "Bo'lajak nemis tili o'qituvchilarining xatolarni bartaraf etish kompetensiyasini takomillashtirish modeli" talabalarga xatolarni samarali to'g'rilash metodikasini o'rgatish, ularni xatolarni tuzatish jarayoniga tolerantlik bilan yondashishga odatlantirish hamda dars jarayonida barcha til o'rganuvchining individual xususiyatlarni inobatga olgan holda xatolarni to'g'rilashni eng optimal usulidan foydalanish, xatolarni to'g'rilash jarayoni til o'rganuvchilarning shu tilni o'rganishga bo'lgan qiziqishlarini pasayishiga yoki yo'qolishiga sabab bo'lmasi uchun amalgalashiriladigan ishlar borasida ko'nikma shakllantirish va uni muntazam rivojlantirish asosida ijobjiy samaradorlikka erishish modelini takomillashtirish uchun yaratilgan bo'lib, zamonaviy nemis til darslari, ya'ni kommunikativ yondashuv asosida nemis tilini o'rganish jarayoni uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

XX asrning oxirlari va XXI asr boshlari chet til ta'limida yuz bergan paradigmalar almashinuvi – xorijiy tillarni o'rganish jarayonida yo'l qo'yiladigan hech qanday xato salbiy mazmun kasb etmasligini, aksincha bunday holat kuzatilishi til o'rganuvchilarning o'rganish jarayonida yuz berayotgan ilgarilashning bir ko'rinishi ekanligini, shu bilan birga yo'l qo'yilgan xatolarni tizimlashtirish yordamida xorijiy til o'qituvchisi til o'rganuvchilar qaysi mavzularni yaxshi o'zlashtirganlari yoki o'zalashtirmaganlari aniqlashda va aynan shu mavzularni yana takror o'rgatilishi lozimligini tushunib olish, natijada shunga ko'ra o'qitish jarayonini tashkillashda yordam beradi [6]. Bo'lajak nemis tili o'qituvchilarida, ya'ni talabalarda aynan shu jihatlarni shakllantirish, ularda xatolar bilan to'g'ri ishlay olish borasida bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish masalasini chet tillar o'qitish metodikasining dolzarb vazifa sifatida qayd etish mumkin. Chet til ta'limi jarayonini zamonaviy metodlar asosida modellashtirish esa har bir pedagog faoliyatining ajralmas qismi sifatida tushunilishi maqsadga muvofiq.

Fikrimizcha, bo'lajak nemis tili o'qituvchilarida *xatolarni bartaraf etish kompetensiyasini* takomillashuvi boshqa kompetensiyalar bilan bir butunlikni hosil qilsa bugungi kun talablariga javob bera oladigan pedagog kadrlarni tayyorlash maqsadiga erishilgan bo'ladi, deyish maqsadga muvofiq. Albatta, talabalarda, ya'ni bo'lajak pedagoglarda xatolarning til o'rganish jarayonidagi ahamiyati, ularni to'g'rilashning optimal usullari haqidagi tushunchalarni shakllantirish hamda xatolarga nisbatan ijobjiy munosabatni shakllantirish orqali o'qitish samaradorligiga ijobjiy ta'sir etish imkoniyati yuzaga keladi.

Bo'lajak nemis tili o'qituvchilarining xatolarni bartaraf etish kompetensiyani takomillashtirish haqida gapirishdan avval *kompetensiya* tushunchasiga ham to'xtalib o'tishni ma'qul ko'rdik. I.Yoqubovning qayd etishicha, taniqli o'zbek metodist olimi J.Jalolov "kompetensiya tilni o'rganishga harakat qilmoq, til o'rganishga qobiliyatli bo'lmoxlikdir"[7] deb juda to'g'ri ta'rif bergen. Yana bir o'zbek olimalardan G.Asilovaning fikriga ko'ra "kompetensiya ma'lum bir sohada faoliyat yuritish jarayonida shaxsiy sifatlar hamda bilim, ko'nikma va malakalarning samarali qo'llanishidir"[8]. Yuqoridagi ta'riflardan xulosa qilib shuni aytish mumkinki, xatolarni bartaraf etish kompetensiyasi bo'lajak nemis tili o'qituvchilarining o'z pedagogik faoliyatlarida xatolardan ta'lim jarayonidagi ilgarilash uchun foydalana olish qobiliyatiga ega bo'lishidir. Bo'lajak nemis tili o'qituvchilarining xatolarni bartaraf etish kompetensiyani takomillashtirish uchun xatolarni bartaraf etish modelini ishlab chiqish zarur.

Bizning firkimizcha, chet til o'qitish yaxlit tizim sifatida tushunilishi va o'rganilishi lozim bo'lgan jarayon bo'lib, chet til o'qitish metodikasining dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Xatolarni bartaraf etish kompetensiyasini takomillashtirishda, ushbu jarayonning modelini yaratish, ya'ni modellashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Modellashtirishning vazifasi ilmiy-tadqiqot faoliyatidagi yaxlit siklik jarayonni aks ettirish hisoblanadi va bu jarayonda tadqiqotchidan ushbu sikl mohiyatini diqqat bilan o'rganib chiqish talab etiladi. Tadqiqot natjasida tavsija etiladigan yakuniy model esa kuzatish jarayonida yuzaga keladigan fikr-mulohazalar bilan boyitib boriladi. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, pedagogik jarayonni modellashtirish tanlangan jarayon haqidagi bilimlarni siklning turli bosqichlarida o'rganish hamda yakuniy tavsija etiladigan model ko'rinishini tasavvur qilishga imkon yaratish hisoblanar ekan.

Har qanday modelni yaratishdan avval, birinchi navbatda uning maqsadini belgilab olish talab etiladi. Ushbu talabdan kelib chiqqan holda, modelning qo'llanilish sohalarini chegaralash maqsadga muvofiq hisoblanadi. Shuning uchun "Bo'lajak nemis tili o'qituvchilarining xatolarni bartaraf etish kompetensiyasini takomillashtirish modeli" ni yaratishdan avval biz ham modelning maqsadini belgilab oldik. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, maqsadni belgilash va qo'llanilish sohalarini chegaralash modellashtirishning dastlabki bosqichi hisoblanar ekan. Taklif etilayotgan modeldan kutilayotgan natijalar esa o'z navbatida modelning maqsadiga mos holda shakllantiriladi. Modellashtirish jarayonida ta'lim mazmunini hamda o'quv-amaliy faoliyatni ham modellashtirish maqsadga muvofiq. Pedagogikada olib borilayotgan har bir taddiqot ishida taklif etilayotgan yoki takomillashtirilayotgan modelning amaliy ahamiyati uning shakllantirish bosqichlari hamda tamoyillari to'g'ri hisoblanganligiga asoslanadi. Har qanday modelning , tushunarililik, ko'rgazmalilik hamda obyektivlik kabi tamoyillari, uning imkoniyatlari va turlari bilan birga pedagogik tadqiqotning vazifalarini ham aniqlashga yordam beradi.

Pedagogik jarayonni modellashtirish o'qitishga olib kirilishi rejalashtirilayotgan modelning shakllantirilishidir. Har qanday pedagogik modellashtirish bir necha bosqichlarda amalga oshiriladi. Dastlab, taddiqotning nazariy-metodologik asoslari tanlanadi, so'ngra modellashtirish masalasiga o'tiladi. Modelning parametrleri va tarkibiy qismlari o'ttasidagi bog'liqliklar aniqlanadi. Taddiqotda belgilab olingan vazifalarni yechishda modelning yaroqliligi o'rganiladi. Shundan so'ng tavsiya etilayotgan model tajriba-sinovdan o'tkaziladi. Erishilgan natijalar esa tahlil qilinadi. Yo'l qo'yilgan kamchiliklarni aniqlanganadi. Aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish shart-sharoitlarni aniqlanadi.

Bo'lajak nemis tili o'qituvchilarining xatolarni bartaraf etish kompetensiyasini takomillashtirish modeli deganda, bo'lajak nemis tili o'qituvchilarining til o'rganuvchilarning xatolarini samarali bartaraf etish usullarini o'rgatishga xizmat qiluvchi, ijobji fidbek berish yordamida demotivatsion emas, aksincha motivatsion o'quv jarayonini tashkil etish uchun zaruriy bo'lgan pedagogik shart-sharoitlarni yaratishga xizmat qiluvchi didaktik imkoniyatlarni o'zida aks ettiruvchi modelni tushunamiz. O'tkazilgan tajriba-sinov ishlari asosida, biz pedagogik modellashtirishning quyidagi komponentlarini aniqladik: aniq yo'naltirilgan maqsad, o'quv jarayonini to'g'ri rejalashtirish, o'qitish jarayonida qo'llaniladigan xatolarni to'g'rilash usullari, dars jarayoniga ijobji fidbek berish amaliyotini olib kirish, kutilayotgan natija va bo'lajak nemis tili o'qituvchilarining xatolar bilan ishlash faoliyatini baholashga qo'yiladigan talablarni ishlab chiqish. Biz tomonimizdan taklif etilgan bo'lajak nemis tili o'qituvchilarining xatolarni bartaraf etish kompetensiyasini takomillashtirish modeli, oldindan belgilangan maqsad va unga erishish usullari, vositalariga ega.

Bo'lajak nemis tili o'qituvchilarining xatolarni bartaraf etish kompetensiyasini takomillashtirishda samaradorlikka erishish uchun tavsiya etilgan model – ta'lim maqsadining aniq yo'naltirilganligi, o'quv faoliyati mazmunini tanlash, xatolar bilan ishlash jarayonini tashkil etish va natijalardan iborat bo'lib, o'z ichiga o'zaro bog'liq bo'lgan, bir-birini taqozo etuvchi qismlarni qamrab olgan. Uning tarkibidagi har bir qism o'zining alohida ahamiyatiga ega. Ular bir-biridan ajragan holda belgilangan maqsadga erishish mumkin emas. Bundan tashqari modelning har bir tarkibiy qismi o'zining tavsifiga ega bo'lib, ular modelning umumiylar xarakterini ochib berishga xizmat qiladi. Xatolarni bartaraf etish metodikasini ta'lim jarayoniga olib kirishning diagnostik ko'satkichlari jarayonga qo'yiladigan talablardan tashkil topgan.

Bo'lajak nemis tili o'qituvchilarining xatolarni bartaraf etish kompetensiyasini takomillashtirish modeli tuzilishli sxemasi asosida nemis tilini o'rgatish jarayonida xatolar bilan kreativ yondashuv asosida ishlashni o'z ichiga qamrab oladi. Hozirgi vaqtga qadar talabalarning chet til kompetensiyalarini takomillashtirishga mo'ljallangan turli modellar taklif etilgan. Xususan, "Chet tilida og'zaki nutqni o'sishiga ta'sir etuvchi omillar – Robert Gardner modeli"[3], "Chet tilida gapishtirish ko'nikmasini shakllanish jarayoni – Levelt modeli" [2] kabi modellar til o'rganish jarayonining o'ziga xos jihatlarini qamrab olishga harakat qilgan. Levelt modelida til xotirasi, grammatik kodlash, fonologik kodlash haqida ma'lumot keltiriladi.


R.Luster va L.Rantalar xatolarni to'g'rilash uchun quydagicha modelni taqdim etishgan. Ularning fikriga ko'ra, bu modelni xatolarni davolash ketma-ketligini birgalikda tashkil etuvchi yoki variantlar qatorini aks ettiruvchi oqim diagrammasi sifatida tushunish kerak [4; 5]. (1-rasmga qarang.)

Ushbu modelda til o'rganuvchilarning grammatik, leksik va fonologik xatolarga yo'l qo'yishlari, ularni to'g'rilash uchun korrektiv fidbekdan foydalanish lozimligi, bunda ayniqla bilvosita to'g'rilashga ahamiyat qaratish kerakligi, ushbu jarayonlarning ishtirokchilari o'qituvchi hamda talabalar bo'lishi, talabalarning xatolarni to'g'rilashga bo'lgan extiyojlari, xatolarni talabalarning o'zlarini tomonidan ham

## PEDAGOGIKA

to'g'rilanishi va ushbu modeldagi barcha elementlarning o'zaro aloqadorlikda ekanligini ko'rish mumkin. Lekin, yuqorida nomi qayd etilgan va tasvirlangan modellarda bo'lajak nemis tili o'qituvchilarining xatolarni bartaraf etish kompetensiyasini qanday takomillashtirish haqida ma'lumot berilmagan.

Bo'lajak nemis tili o'qituvchilarining xatolarni bartaraf etish kompetensiyasini takomillashtirish modeli dunyo va o'zbek tadqiqotchilari tomonidan ishlab chiqilmagan bo'lsa-da, R.Luster va L.Rantaning xatolarni to'g'rilash modeli biz taklif etayotgan model uchun asos bo'lib qildi. Bo'lajak nemis tili o'qituvchilarining xatolarni bartaraf etish kompetensiyasini takomillashtirish natijasida talabalarning nafaqat nemis tilidagi bilimlarini oshirishga, ularning xatolarni bartaraf etish kompetentligini takomillashtirishga, til o'rganish jarayonini dinamikasini oshishiga erishildi. Talabalarning xatolar bilan ishlash haqidagi bilimlari boyitildi, ularda ijobjiy fidbek berish ko'nikmasi shakllantirildi.



**1-rasm. R.Luster va L.Rantaning xatolarni to'g'rakash modeli**

Olib borilgan tajriba-sinov ishlari natijalari, mavzuga oid ilmiy manbalarning tahlili, modellashtirish jarayonidagi siklik kuzatuvlar bo'lajak nemis tili o'qituvchilarining xatolarni bartaraf etish kompetensiyasini takomillashtirish modelini yaratishga imkon berdi.


Taklif etilayotgan model maqsad, o'quv faoliyat jarayoni hamda natija kabi bloklarga bo'lingan. Ushbu bloklarning vertikali esa, o'z navbatida ushbu blokning mazmunini ochib berishga xizmat qiladi.

Modelning maqsadning aniq yo'nalganligi bloki tarkibiga tajriba-sinov ishida belgilab olingen maqsadlar, xususan, bo'lajak nemis tili o'qituvchilarida xatolarni ijodiy, ijobiy va kreativ to'g'rakash asosida bilish faoliyatini rivojlantirish, xatolarni to'g'ri va o'z vaqtida amalga oshirilgan to'g'rakash asosida til o'rganuvchilarda til o'rganishga bo'lgan motivatsiyani uyg'otish kabilar kiritildi. O'quv faoliyati mazmunini tanlash, mazmunli-jarayonli blokda dars mashg'ulotida xatolarni to'g'rakashning turli usullaridan foydalanish, ayniqsa til o'rganuvchilarni o'z xatolarini o'zlarini to'g'rashlariga undash, xatolarni muntazam ravishda to'g'rakashga odatlantirish, xatolarni to'g'rakashga qo'yiladigan metodik talablar, xatolarning turlari aks etgan. Natijaviy blok bo'lajak nemis tili o'qituvchilarining xatolarni bartaraf etish kompetensiyasini takomillashtirish, xatolarni to'g'rakashga nisbatan shaxsiy munosabatni shakllantirishga erishishni nazarda tutadi. Modelda xatolarni samarali bartaraf etishga qo'yiladigan talablar aks ettirilgan. Ushbu talablar asosida amalga oshirilgan xatolarni to'g'rakash jarayoni til o'rganuvchilarning o'rganish jarayonida ijobiy ilgarilashlariga erishishga yordam beradi. Bu talablar quyidagilardan iborat:

- bo'lajak nemis tili o'qituvchilarini til o'rganuvchilarning shaxsiy xususiyatlarini inobatga olish;
- dars maqsadidan kelib chiqib xatolarni maqsadli to'g'rakash;
- xatolarning takrorlanish intervallarini inobatga olgan holda o'quv materiallarini tayyorlashga alohida ahamiyat berish;
- eng ko'p yo'l qo'yilayotgan xatolarni muhokama qilish uchun darsning bir qismini ajratish yoki alohida dars tashkil etish;
- dars jarayonida til o'rganuvchilar yo'l qo'yayotgan xatolarni muntazam qayd etib borish va bunda guruhdagi til o'rganuvchilarning yordamidan ham samarali foydalanish etib belgilangan.

Bo'lajak nemis tili o'qituvchilarida xatolarni bartaraf etish kompetensiyasini takomillashtirish jarayonida xato tushunchasi alohida ahamiyat kasb etadi va uni bayoniga alohida e'tibor qaratish ham maqsadga muvofiq. Shuning uchun xatolarni samarali bartaraf etishda har bir talaba xatolarning turlari, ya'ni og'zaki nutqda va yozma ishlarda uchraydigan xatolar, ularni to'g'rakashning eng optimal usullari bilan tanishtirilishi lozim. Quyida ushbu jarayonni tasvirlashga harakat qilamiz (2-rasmga qarang):

## PEDAGOGIKA



### MUHOKAMA

Taklif etilayotgan modelda pedagogik fokus tushunchasi ham markaziy o'r'in egallagan. Buning sababi xatolarni to'g'rilashda pedagogik fokusning muhim ahamiyat kasb etishi hisoblanadi. Xatolarni to'g'rilash jarayonida pedagogik fokus deganda o'quvchilar tomonidan yo'l qo'yilayotgan xatolar doirasini aniq va to'g'ri chegaralay olish, ularni optimal darajada bartaraf etishga harakat yonda yangi o'rganilgan mavzu bo'yicha yo'l qo'yilayotgan xatolari to'g'rilashga ko'proq e'tibor qaratish lozim. Agar har bir o'rganilgan mavzu doirasida uchraydigan xatolar bilan shu tarzda ishlansa, xatoga yo'l qo'yish ehtimolini pasaytirishga erishish mumkin.

Xulosa sifatida shuni alohida ta'kidlash lozimki, bo'lajak nemis tili o'qituvchilarining xatolarni bartaraf etish kompetensiyasini takomillashtirish metodikasiga asoslangan modeldan foydalanish nemis tili o'rgatish va o'rganish jarayoni samaradorligiga ijobiyligi ta'sir etadi. Uning natijasida til o'rganuvchilarda o'zlari yo'l qo'yayotgan tipik xatolarni tizimlashtirish va ularni ongli tarzda bartaraf imkoniyati yuzaga keladi. Bo'lajak chet tili (nemis tili) o'qituvchisi sifatida o'quvchilar nemis tilini o'rganish jarayonida yo'l qo'yishlari mumkin bo'lgan xatolar bilan oldindan tanishadi va ularni bartaraf etishning eng optimal usullarini tanlay oladi. Shuning uchun ham bo'lajak nemis tili o'qituvchilarining

### ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ballweg S. Deutsch lehren lernen. Wie lernt man die Fremdsprache Deutsch. 2013. Munchen. S. 120
2. Dieter W. Sprachproduktion als Planung: Ein Beitrag zur Psychologie und Didaktik des Sprechens. Akten der Gesamtschweizerischen Tagung für Deutschlehrerinnen und Deutschlehrer. Tagungsband. –Bern: 2006. – S. 67.
3. Gardner R. A student's contributions to secondlanguage learning. Part II. Affective variables. // Language Teaching. № 26. – p: 1-11.
4. Lyster, R. (1998b): Negotiation of form, recasts, and explicit correction in relation to error types and learner repair in immersion classrooms. *Language Learning* 48, 183-218.
5. Lyster, R./Ranta, L. (1997): Corrective feedback and learner uptake: negotiation of form in communicative classrooms. *Studies in Second Language Acquisition* 19, 37-66.
6. Walz J. C. Error Correction Techniques for the Foreign Language Classroom. *Language in Education: Theory and Practice*, No. 50. – Center for Applied Linguistics, PO Box 4866, Hampden Station, Baltimore, MD 21211, 1982. p.58
7. Yoqubov I. Comparative Methods of Teaching English at Schools, Lyceums and Colleges. – T.: Bayoz. 2014.– 252 b.
8. Асилова Г.А. Божхона ва солиқ йўналишлари талабаларининг давлат тилида касбий мулокот юритиш компетенциясини ривожлантириш (рус гурухларида): Автореф. дисс. пед.фак. докт. –Т., 2017. – 13 б.
9. Юлдашев Ж., Усмонов С. Педагогик технология асослари. –Тошкент: Ўқитувчи. – 10 б.